AHMAD ODILOV'S INCOMPARABLE CONTRIBUTION TO UZBEKISTAN MUSICAL CULTURE

Umrqulova Gulira'no
Gulistan State University
3rd year student of the "Performance on Folk Instruments" discipline
Academic supervisor:**Xusnora Shukurjonova**

AHMAD ODILOVNING O'ZBEK MUSIQA MADANIYATIGA QO'SHGAN BEQIYOS HISSASI

Umrqulova Gulira'no
Guliston davlat unversiteti
"Xalq cholg'ularida ijrochilik"
ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Xusnora Shukurjonova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq artisti, professor Ahmad Odilovning o'zbek musiqa san'ati rivojidagi, xususan, chang ijrochiligi maktabini akademik darajaga ko'tarishdagi ulkan xizmatlari tahlil qilinadi. Ahmad Odilovning cholg'u islohotchisi, mohir ijrochi va yirik pedagog sifatidagi faoliyatini yoritiladi. Ahmad Odilovning milliy cholg'u asboblarini takomillashtirish va professional kadrlar tayyorlash tizimidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются огромные заслуги народного артиста Узбекистана, профессора Ахмада Одилова в развитии узбекского музыкального искусства, в частности, в повышении академического уровня школы чангского исполнительства. Освещается деятельность Ахмеда Одилова как инструментального реформатора, виртуозного исполнителя и крупного педагога. Роль Ахмада Одилова в системе совершенствования национальных инструментальных средств и профессиональной подготовки кадров научно обоснована.

Annotation: This article analyzes the outstanding contributions of people's artist of Uzbekistan, professor Ahmad Odilov in the development of Uzbek musical art, in particular, in raising the chang School of performance to an academic level. Ahmad Odilov's career as an instrument reformer, a skilled performer and a major educator is highlighted. The role of Ahmad Odilov in the system of improvement of National Instruments and training of professional personnel is scientifically substantiated.

Kalit so'zlar: Chang cholg'usi, o'zbek musiqa madaniyati, ijrochilik maktabi, pedagogika, musiqiy islohot, akademik ijrochilik, milliy cholg'ular, konservatoriya, darslik, nota tizimi.

Ключевые слова: Чанг инструмент, узбекская музыкальная культура, исполнительская школа, педагогика, музыкальная реформа, академическое исполнительство, национальные инструменты, консерватория, учебник, нотная система.

Keywords: dust instrument, Uzbek music culture, performance school, pedagogy, musical reform, academic performance, National Instruments, Conservatory, textbook, note system.

Milliy musiqa san'atining yangi davri o'zbek milliy musiqa san'ati XX asrda o'zining tub burilish davrini boshdan kechirdi. Bu davr nafaqat yangi janrlarning kirib kelishi, balki an'anaviy cholg'u ijrochiligining ilmiy va akademik asosda qayta shakllanishi bilan ham harakterlanadi. O'zbek changchilik san'atining bugungi yuksak darajaga yetishida O'zbekiston xalq artisti, mohir sozanda va atoqli pedagog Ahmad Odilovning xizmatlari beqiyosdir.

Ahmad Odilovich Odilov 1928-yil 21-iyul sanasida Toshkentda tavallud topgan. Chang cholg‘usi ijrochilarining namoyondasi. 1977-yil O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi unvoniga sazovor bo‘lgan.

“Ahmad Odilovning oliy maqsadi - konservatoriyada o‘qish va malakali ustozlar bilimidan bahramand bo‘lish edi. Taqdir taqo zosi bilan u 1948-yilda konservatoriyaning ikkinchi kursiga qabul qilindi. Ixtisoslik bo‘yicha A.Petrosyans, N.Goldman, Sh.Shpital niy, A.Davidovlardan ta’lim oldi, musiqa nazariyasini N.Koral skiy, musiqa adabiyoti tarixini S.Veksler, F.Karomatov, V.Uspen skiy, I.Blagoveshenskiy kabi ustozlardan o‘rgandi. O‘zbekiston kompozitorlari asarlaridan S.Boboyevning Chang va xalq chol g‘ulari orkestri uchun “Konsertino”, Fattoh Nazarovning “Qo‘shiq va raqs”, G‘.Qodirovning “Syuita”si, M.Ashrafiyning “Farg‘ona cha yalla”, “So‘zsiz qo‘shiq”lar A.Odilov konsert repertuaridan mustahkam o‘rin egallagan”[1].

1948-1952-yillarda Toshkent konservatoriyasini ta’lim olgan . O‘zbek davlat filarmoniyasi xalq cholg‘u asboblari orkestri sozandasi, Toshkent musiqa bilim yurtida o‘qituvchi va direktor lavozimlarida faoliyat olib borgan. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida o‘qituvchi (1948-yildan), professor (1977), changchilar ansambli tashkilotchisi va rahbari (1971-yildan). Ijro uslubi yuqori badiiy-texnik mahoratiga asoslangan. Keng qamrovli konsert repertuarida o‘zbek xalq kuylari “Gulbahor”, “Tanavor”, “Sharof 1,2”, “Jazoir”, “Kurd” asarlari va ayniqsa, o‘zbek va chet el kompozitorlari asarlari keng o‘rin olgan. Chang uchun darsliklar, qo‘llanmalar muallifi. Osiyo va Yevropa mamlakatlarida gastrollarda bo‘lgan[2].

“U o‘zining intiluvchangligi, ziyrakligi va tirish qoqligi bilan boshqa bolalardan ajralib turar edi. Mohir sozanda Nuriddin aka Halilov Ahmad akani Muqimiy nomidagi teatrga o‘zlari bilan tez-tez olib borardilar. U yerda yosh musiqa ixlosmandi “Tohir va Zuhra”, “Nurxon”, “Oftobxon” kabi spektakllarni zavq bilan tomosha qiladi. Orkestr sozandalari joylashgan maxsus o‘radan taralayotgan yoqimli navolarga mahliyo bo‘lib, sirli ohanglar og‘ushida o‘z kelajagini musiqa san’ati bilan bog‘lashga ahd qiladi”[3].

Odilovning eng buyuk xizmati — uning tizimli pedagogik faoliyatidir. U O‘zbekiston davlat konservatoriyasida chang sinfiga asos soldi va ushbu cholg‘uni o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratdi. Odilov yaratgan o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar bugungi kunda barcha musiqa maktablari, kollejlar va oliy ta’lim muassasalari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Odilov dars jarayonida faqat texnikaga emas, balki ijroning jonli va ta'sirchan bo'lishiga alohida urg'u berardi. Uning uslubiyati haqida zamondoshlari quyidagicha xotirlashadi:

“Ustoz Odilov dars jarayonida shogirdidan nafaqat texnik mahoratni, balki har bir notaning ortidagi falsafani his qilishni talab qilar edi. Uning nazdida, sovuq urilayotgan mizrob ohang hosil qilishi mumkin, lekin faqat qalb bilan urilgan zarbgina haqiqiy musiqaga aylanadi[4]”.

Ahmad Odilov faoliyatining ilk bosqichlaridanoq chang cholg‘usining texnik imkoniyatlari cheklanganligini anglab yetdi. U cholg‘u ustasi ustalari bilan hamkorlikda changning simlar tizimini, tovush qatorini va rezonator qismini isloh qildi. Bu islohotlar natijasida chang cholg‘usi xalq cholg'ulari orkestr tarkibida va mustaqil yakkaxon asbob sifatida to‘laqonli o‘rin egalladi. Ahmad Odilov taklif etgan yangi konstruksiya changni nafaqat milliy kuylarni, balki jahon klassik kompozitorlarining murakkab asarlarini ham ijro etish imkonini beradigan universal asbobga aylantirdi.

Ushbu islohotlarning mazmuni haqida Ahmad Odilov aytadi: “Chang — bu faqatgina simlar majmuasi emas, balki o‘zbek ruhining eng nozik tebranishlarini aks ettira oladigan, diapazoni bo‘yicha fortepiano bilan bo‘ylasha oladigan mukammal musiqiy laboratoriyadir”.

Ahmad Odilovning o‘zi mohir ijrochi sifatida o‘zbek xalq kuylarini, maqom yo‘llarini va kompozitorlik asarlarini yuksak mahorat bilan talqin etgan. U xalq orasida mashhur bo‘lgan

---

[1] Tashmatova A. “Ijrochilik san’ati tarixi”, T., 2017, 114-bet

[2] O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

[3] Lutfullayev A. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi, 2006, 15-бet.

[4] Begmatov S. “O‘zbek an’anaviy cholg‘u ijrochiligi”, T; Yangi nashr, 2008, 42-bet

kuylarni nota tizimiga solib, ularning asl holida avlodlarga yetib borishini ta'minladi. Uning sa'y-harakatlari bilan chang cholg'usi uchun maxsus repertuar shakllantirildi. Odilov turli janrdagi asarlarni chang uchun moslashtirdi, bu esa o'zbek musiqa adabiyotini boyitishga xizmat qildi.

"Kamtarin inson, ajoyib sozanda, mohir murabbiy hamda ja moat arbobi Ahmad Odilov tomonidan chop ettirilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar Respublikamizda yosh iste'dod sohiblarini tarbiyalashda, musiqa ta'limining barcha sohalarida muhim omil ga aylangan. Ular O'zbekistonda cholg'u ijrochiligi san'atining rivojlanishiga va uning ommalashuviga hamda kompozitorlik ijodiyotini targ'ib qilishga xizmat qilmoqdalar"[5].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ahmad Odilov o'zbek musiqa madaniyatida o'ziga xos "Odilov maktabi"ni yaratdi. Uning xizmatlari natijasida chang cholg'usi professional akademik asboblar qatoridan munosib o'rin oldi. Ahmad Odilov qoldirgan ilmiy-pedagogik meros va u yaratgan ijrochilik an'analari o'zbek musiqa san'atining oltin fondidan joy olgan. Uning nomi milliy musiqa madaniyatimizning rivojiga hissa qo'shgan eng yirik siymolardan biri sifatida abadiy saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Odilov A. Chang o'rgatish uslubiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
2. Odilov A. Chang darsligi. – Toshkent: Musiqa, 2008.
3. Karomatov F. M. O'zbek xalq cholg'u musiqasi. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
4. Begmatov S., Matyoqubov M. O'zbek an'anaviy cholg'u ijrochiligi. – Toshkent: Yangi nashr, 2008.
5. Azizova F. O'zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: Musiqa, 2014.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent, 2000.
7. Liviyev A. O'zbek chang ijrochiligi san'ati. – Toshkent, 2010.
8. Zufarov M. O'zbek musiqa san'ati ustalari. – Toshkent, 1995.
9. Abdurahmonov M. Cholg'ushunoslik. – Toshkent: Musiqa, 2011.
10. Gulira'no U., Shukurjonova X. O 'ZBEK MUSIQA MADANIYATIDA CHANG CHOLG 'USINING O 'RNI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2025. – Т. 83. – №. 1. – С. 163-165.
11. Begmatov B., Shukurjonova X. QADIMIY MUSIQA MADANIYATI CHOLG 'ULARI TASNIFI //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 17. – С. 31-34.
12. Gulomovna A. M. et al. THE INFLUENCE OF EASTERN HERITAGE AND EUROPEAN VOCAL SCHOOLS ON THE DEVELOPMENT OF UZBEK VOCAL ART //London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI). – 2026. – Т. 4. – №. 1. – С. 86-89.

[5] Tashmatova A. "Ijrochilik san'ati tarixi", T., 2017, 115-bet